

IJTIMOIY TARMOQLARNING INSON XULQIGA TA'SIRI

Olimov Saydullo*Qo'qon Universiteti talabasi***Dadajonova Mashxurabonu***Qo'qon Universiteti Ta'lim fakulteti**Pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy va salbiy ta'siri chuqur tahlil qilingan. Ijtimoiy tarmoqlarni ijobiy va salbiy ta'sir omillari ajratib ko'rsatilib, yosh avlod ongiga ijtimoiy tarmoqlarning qanday yosinda ta'sir qilayotgani misollar asosida yoritildi. Ijtimoiy tarmoqlarning inson xulq-atvoriga ta'siri ko'p qirrali va murakkab masala bo'lib, u har bir shaxsning yoshi, ijtimoiy holati, ruhiy tayyorgarligi va axborot madaniyatiga bog'liq. Bu jarayonni faqat taqiq va cheklovlar orqali emas, balki axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, oilaviy va maktab tarbiyasini mustahkamlash orqali tartibga solish mumkin.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy tarmoq, instagram, telegram, facebook, psixologlar, ijtimoiy tarmoqlarning salbiy va ijobiy tomonlari.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ijtimoiy tarmoqlar orqali milliy va jahon adabiyot namunalarini keng targ'ib qilish zarurligini, badiiy va ilmiy merosni virtual makonda targ'ib etish orqali yoshlar ongini mustahkamlash maqsad qilganini bildirib, bu borada "ma'naviy immunitetni" mustahkamlashni alohida e'tirof etgan. Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 21 maydagi 139-sonli qarori ta'lim muassasalarida mobil telefonlardan foydalanishni tartibga solish maqsadida qabul qilingan. Ushbu qaror o'quvchilarning dars jarayonida chalg'imasligini ta'minlashga qaratilgan. Masalan, telegram O'zbekistonda eng ko'p foydalanuvchiga ega ijtimoiy tarmoq bo'lib, undan 20 millionga yaqin odam foydalanadi. Ammo, afsuski, telegram O'zbekistonda kiberjinoyatlar eng ko'p sodir etilayotgan platformaga aylangan. Bunga chora sifatida esa, foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlarini o'z telegram sahifasiga joylamlasligi va turli shubhali xabarlardan ogoh bo'lishi so'raladi.¹

Ijtimoiy tarmoqlar bizning bir-biriga bog'langan dunyomizning yurak urishiga aylandi. Turli xil kelib chiqishi va yosh guruhlarini qamrab olgan milliardlab odamlar ijtimoiy tarmoqlarni hayotlarining ajralmas qismi sifatida qabul qilishdi. Quyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bo'yicha 2023 yilgi yangilangan statistik ma'lumotlar keltirilgan: dunyo bo'ylab 4.8 milliard ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi bor, bu dunyo aholisining 59.9 foizini va barcha internet foydalanuvchilarining 92.7

¹ <https://rost24.uz/oz/news/2061>

foizini tashkil qiladi. Oʻrtacha odam kuniga 2 soat 24 daqiqa vaqt sarflaydi. Eng koʻp ishlatiladigan ijtimoiy tarmoqlar va yuklab olish koʻrsatkichlari bilan – Facebook(10mlrd+), YouTube(10 mlrd+), WhatsApp(10 mlrd+) va Instagram(5 mlrd+). Ijtimoiy tarmoqlardan eng koʻp foydalanadigan yosh guruhi 18-29 yosh. Dunyodagi eng ommabop ijtimoiy media platformasi Facebook boʻlib, oyiga 2.989 milliard faol foydalanuvchiga ega. YouTube ikkinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi boʻlib, oyiga 2.527 milliard faol foydalanuvchiga ega. WhatsApp uchinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi boʻlib, oyiga kamida 2 milliard faol foydalanuvchiga ega. Instagram toʻrtinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi boʻlib, oyiga 2 milliard faol foydalanuvchiga ega. TikTok beshinchi eng mashhur ijtimoiy media platformasi boʻlib, oyiga 1.9 milliard faol foydalanuvchiga ega. Odamlar televizor tomosha qilishdan koʻra koʻproq vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda oʻtkazadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish rivojlangan mamlakatlarda eng yuqori. Ijtimoiy tarmoqlardan qishloqlardagidan koʻra shahar aholisi koʻproq foydalanadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish yoshi kattalar orasida oshib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizdagi oʻrnini inkor qilib boʻlmaydi. Biroq tahlikali jihatlariga ham koʻz yumolmaymizki, ijtimoiy tarmoqlarda vaqtimizni va ruhiy sogʻligimizni ham qurbon beryapmiz. Ijtimoiy tarmoqlar yangi hodisa boʻlgani uchun uning atrofida hali hanuz toʻliq tadqiqotlar olib borilmagan. Ayrim kishilar kundalik stress va tashvishlardan uzoqlashish uchun ijtimoiy tarmoqlardan panoj topishga urinishadi. Ammo tadqiqotlar ijtimoiy tarmoqlar stressni ozaytirish uchun emas, aksincha, ruhiy ziqlik va asabiylikni ortirish uchun xizmat qilishini taʼkidlaydi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan ayollarda erkakalarga qaraganda ruhiy ziqlik koʻproq kuzatiladi. Tadqiqotlar natijasida, ijtimoiy tarmoqlarga qaram boʻlgan kishilarda xavotir, vahima, asabiy tajanglik va behalovatlik boshqalarga nisbatan koʻproq aniqlandi. Yetti va undan koʻproq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadigan foydalanuvchilar umuman foydalanmaydigan va yoki 1-2 akkuantdan foydalanadiganlardan koʻra koʻproq xavotir hamda tajanglikda yuradilar. Baʼzi tadqiqotlar ruhiy tushkunlik va ijtimoiy tarmoqlar orasida qatʼiy bogʻliqlik mavjudligini koʻrsatsa-da, ayrim mutaxassislar ijtimoiy tarmoqlarni ruhiy tushkunlikdan xalos etuvchi ijobiy jarayon sifatida ham baholashadi. Bunga sabab ijtimoiy tarmoqlarda biz koʻradigan reelslar, kontentlar va videolar boshqalarga qilingan yaxshiliklar, ibratli videolar, sovgʻalar ulashish haqida boʻlsa insonda hotirjamlik va yaxshilik qilish kabi hislarni uygʻotadi.

Internetning virtual makonida maʼlumotlarning mavjudligi insoniyat rivojlanishining yangi bosqichi boshlanishi bilan bogʻliq. Internet manbalarining ochiqqligi va oʻsishi, onlayn xizmatlarning mashhurligi turli xil hayotiy vazifalarni samarali hal qilish imkonini berdi. Hozirgi vaqtda yetuk va keksa odamlar ham koʻp narsalarni hal qilish uchun onlayn xizmatlardan faol foydalanmoqdalar. Taʼlim

muassasalarining o'qituvchilari, psixologlari va ota – onalar ijtimoiy tarmoqlarda o'quvchilarni ortiqcha vaqt o'tkazish muammolaridan xavotirda. Virtual makonga sho'ng'ish xulq - atvor va shaxsiy rivojlanishdagi o'zgarishlarga oxir - oqibat sezilarli darajada hissa qo'shadi. Ijtimoiy tarmoqlar fikr almashish, ijtimoiy kommunikatsiya, ma'naviy tarbiya, firibgarlik va ekstremizm kabi masalalarda yoshlar ongiga kuchli va ikki yoqlama ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar insonga ikki xil ta'sir ko'rsatadi. Ijobiy ta'sir: do'st orttirish, diniy va maorifiy kontent, o'zini namoyon qilish platformasi. Salbiy ta'sir: internet qaramligi, qisqa muloqot oqimi, yolg'on axborot, ekstremistik, diniy yoki dunyoviy kontent.

O'tgan asrning oxirida (90-yillar) keng tarqalishi bilan ajralib turadigan ijtimoiy-madaniy muhit barcha turdagi axborot resurslari va ularga cheksiz kirish tezda shakllanmoqda. Internetda axborot manbalarining ochiqqligi va o'sishi onlayn xizmatlarning mashhurligi, bir tomondan, turli xil hayotiy vazifalarni samarali hal qilish imkonini beradi, boshqa tomondan, foydalanuvchilar tomonidan ommaviy virtual makonda o'tkaziladigan vaqt o'sish omillariga aylanadi. Ijtimoiy tarmoqlarning mavjudligi va gadjetlarning tarqalishi, virtual rejimda nazoratsiz qolish imkoniyatlarini taqdim etadi. Har xil turdagi internetga qaramlik insonning umumiy hayotiy potentsialining pasayishiga salbiy ta'sir qiladi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, internetga qaramlik nafaqat bolalar va yoshlar shuningdek, yetuk va hatto keksa odamlarga ham ta'sir qiladi. 2019 yil oxirida boshlangan vaziyat bilan yanada og'irlashmoqda ehtiyojni yangilagan global COVID-19 pandemiyasi barcha yosh guruhlar vakillari tomonidan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish kutilmagan va oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlarga olib keldi. Axborot inqilobi z-avlod sotsializatsiyasi jarayoniga ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatdi, 2003 yildan keyin tug'ilganlar butunlay boshqacha tarzda ijtimoiylashdi. Zamonaviy dunyoda Internetning keng tarqalishi quyidagilarga olib keladi, shaxsiyatning o'ziga xos, nisbatan alohida fazilatlarini shakllantirish, ego-shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini berish va tuzilishda haqiqiy o'ziga xoslik mavjudligi haqida gapirishga imkon beradi.

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlarning inson xulq-atvoriga ta'siri ko'p qirrali va murakkab masala bo'lib, u har bir shaxsning yoshi, ijtimoiy holati, ruhiy tayyorgarligi va axborot madaniyatiga bog'liq. Bu jarayonni faqat taqiq va cheklovlar orqali emas, balki axborot savodxonligini oshirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, oilaviy va maktab tarbiyasini mustahkamlash orqali tartibga solish mumkin. Har bir ne'mat insonga xizmat qilishi uchun yaratilgan. Ulardan o'z o'rnida va me'yorda foydalanishga e'tibor berilmasa ne'matlar zararga aylanadi. Axir aytishadi-ku "asalni ham ozi shirin" deb.

Foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalari:

1. Asqarova.D. “Ijtimoiy pedagogika” Ma’ruzalar matni.Namangan.2008y.
2. Juraev.X. “Axborot xavfsizligi va yoshlar”.
3. Karimova.G. “Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar tarbiyasi”
4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya T. “Fan va texnologiyalar”, 2012.
5. Karimova V.M. Psixologiya T,. A.Qodiriy , 2002 y.
6. Ochilov.M. Salomova.D. “Raqamli jamiyatda yoshlar muammolari”
7. Yusupova.D. “Internet va ijtimoiy tarmoqlarning psixologik ta’siri”
8. To‘laganova.T.Q “Tarbiyasi qiyin o‘smirlar”.Toshkent-2005y.
9. Asilova Sanobar & Baxtiyorjonova Mashxurabonu. (2024). “Ta’lim muassasalarida xulqi og‘ishgan bolalar bilan psixolog faoliyati”
10. Usmonova Nargiza & Dadajonova Mashxurabonu. (2023). “O‘smirlardagi axloqiy – idealning rivojlanish xususiyati”
11. <https://rost24.uz/oz/news/2061>